

**MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI***Tuxtasinova Ruxshona**Toshkent Puchon universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, bola shaxsini individual yondashuv asosida rivojlantirish haqida so'z boradi. Shuningdek, sohaga yangicha yondashuvning nazariy asoslari, ularning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** variativ metod, maktabgacha ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlantirish, metod va usullar.

Ta'lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardandir. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Ma'lumki, yaqin vaqtlargacha mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan edi. Rivojlangan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlayotgan pedagog kadrlarning asosiy qismioliy ma'lumotga ega bo'lmagan. Bu esa bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash uchun imkon bermas edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Qabul qilingan me'yoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy,

estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalarining sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

Ayni zamonda yosh avlodning ta'lim tizimiga, xususan, maktabgacha ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yilmoqda. Maktabgacha ta'limning o'ziga xos yangicha tamoyillari allaqachon hayotimizga kirib keldi. Bolalar bog'chalari uchun yangilangan mazmundagi ta'lim dasturlari yaratildi. Bu tizimning o'zgaruvchan tashkiliy shakllarini joriy etish va ushbu shakllar uchun o'quv jarayonini normativ-metodik qo'llab-quvvatlash asoslarini ishlab chiqish yana bir dolzarb vazifa hisoblanadi. Mahalliy ta'limni isloh qilishda uning tarixi va hozirgi holati haqida aniq tushunchaga ega bo'lish muhim masala hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish nazariy manbalarni o'rganishga asoslangan bo'lib, ular bir tomondan pedagogik jamoa bilan metodologik ishlarni tashkil qilishni, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) tarbiyachilarining oilalar bilan o'zaro munosabatlarini yoritib beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida uslubiy ishlarni mohiyatini, pedagoglar bilan uslubiy ishlarning turlarini tashkil qilishning xilma-xilligi va uslubiy ishlarni tashkil etish bo'yicha yondashuvlar D.Mirzaeva va Z.Kenjaeva (maktabgacha ta'lim muassasalarida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati), G.Ermatova (maktabgacha tadimni rivojlantirish va moliyaviy ta'minlash, rejalashtirish, binolami loyihalashtirish), M.Mirazimova, M.Rustamova (maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mashg'ulotlar jarayoniga innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ahamiyati hamda shu asosda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish) va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritib berilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida mustaqil fikrlashga o'rgatish masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlari, psixologik va metodik qarashlarni qamrab olib qo'yidagi xorijiy olimlarning ishlarida o'z aksini topgan: Jennifer Finders, Duncan David J, Ye. Arnautova, T. Afanaseva, N. Nemova va boshqalar.

Ta'limning variativligi – O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Variativlik – ta'lim tizimining sifatini anglatadi, bu esa o'quvchilarni ta'lim dasturlari yoki muayyan turdagi ta'lim xizmatlarini yaratish va ularga o'zlarining o'zgaruvchan ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida tanlash imkoniyatini belgilaydi. N.V. Nemova va T.P. Afanasievning ta'kidlashicha pedagogik

tizimning o‘zgaruvchanlik darajasi ko‘rsatkichlari: o‘quvchilar uchun ham qiziqarli ham qulay bo‘lgan dasturlarning mavjudligi (bir hil qiziqarli variantlar); o‘quvchilar tomonidan bilim olishning ma‘lum bir turini tanlay olish imkoniyatining mavjudligi (qiziqarli variantning qulayligi); tizimning moslashuvchanligi (o‘quvchilarning bilim ehtiyojlari o‘zgarishi uchun sharoitlar yaratish) hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim tizimida variativlik bo‘yicha dastlabki tadqiqot ishlarini amalga oshirganlardan biri N.Sh.Abdullaeva o‘z dissekrtatsiya ishida mazkur metodning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Xorij bog‘chalarida allaqachon yo‘lga qo‘yilgan variativ metodning bola shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab, uni mamlakatimiz muhitiga moslashtirishning ilmiy-metodik nazariyalarini ishlab chiqdi.

N.Abdullaeva MTT pedagogik tizimida variativlik darajasining quyidagi ko‘rsatkichlarini ajratib ko‘rsatadi:

- bolani o‘ziga moslashtiradigan emas, balki bolaning ehtiyojlariga moslashadigan optimal ta‘lim dasturining mavjudligi;
- “bolaning tabiiy qiziqishlaridan o‘zlashtiriladigan qiziqishlarigacha” degan qarashdan kelib chiqib ta‘lim jarayonini qurish;
- maktabgacha ta‘lim mazmunini shakllantirishda “har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, bola ta‘lim sub‘ektiga aylanib, uning o‘zi o‘qitish mazmunini tanlashida faol bo‘lishiga” ga tayanish;
- ta‘lim jarayonida bolaning o‘sgan sari kattalardan tobora mustaqil bo‘lishini inobatga olish, va shunga qarab pedagogning bola foydasiga o‘zining sub‘ektivligini atayin kamaytirib borishi<sup>1</sup>.

Ta‘limning variativligi ta‘limning yuqori darajadagi individualizatsiyasini ta‘minlashga qaratilgan.

Shunday qilib, variativ ta‘lim jarayoni deganda – ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishda qatnashchilar faoliyatining ta‘lim jarayonida o‘zaro hamkorliklari, tadbiq qilinayotgan tanlov sharoitlarining tarkibi (davlat standartlari doirasida), faoliyat va muloqotning vosita va usullari, shaxsning maqsadga bo‘lgan ahamiyatli munosabati, ta‘lim jarayoni va tarkibi tushuniladi.

Agar pedagogik modelga pedagogik ilmiy tadqiqot shakli, muayyan pedagogik ob‘ektning tuzilishi va funksiyalarini o‘rnini bosuvchi va aks ettiruvchi tushunchalar hamda o‘zaro bog‘liqliklarning sxematik to‘plami shaklida umumiy ma‘noda aqliy salohiyat - inson yashaydigan va faoliyat olib boradigan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va tabiiy sharoitlar to‘plami sifatida qaraladigan bo‘lsa, u holda “o‘zgaruvchan”, “ta‘lim” tushunchalari ta‘limning tarkibi va mazmunida o‘ziga xosligini ifodalovchi atamalar bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш. Педагогика фан.б.ф.д. (PhD)...дисс. Тошкент, 2019. – Б. 16.

Bugungi kunda shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, ta’lim metodlari, mazmuni, shakli variativligi maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida ijtimoiy vaziyatlarning xilma-xilligi omillariga yagona adekvat javob bo‘la oladi va bizning asrimizda bu narsani inkor qilib bo‘lmaydi. Hozirda, ta’limga bo‘lgan maktabgacha yoshdagi o‘ziga xos ehtiyojli bolalar kategoriyasi nafaqat o‘zlarining sog‘liqlari (imkoniyati cheklangan bolalar chinakkamiga ta’lim va ijtimoiy inklyuziyaga muhtojdirlar ham), balki ular rivojlanayotgan atrof-muhitning ham zarur moslanuvchanlik va variativligi bilan ham aniqlanadi.

Shu bilan birga madaniyat inklyuziyasi ham tobora ko‘proq uchramoqda. Pedagoglar maktab sinflarida, va bolalar bog‘chalari guruhlarida duch keladigan madaniyat, tillar, an’analar xilma-xilligi ota-ona, pedagog, va ta’lim tashkiloti ta’rischilaridan nafaqat eng mos keladigan dasturni tanlashlarini, balki yuzaga kelgan ta’lim vaziyatiga muvofiq ta’lim mazmunini tuza olish layoqatini ham talab qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимга вариатив ёндашув- мактабгача таълим тизими сифат кўрсаткичидир// Халқ таълими илмий-методик журнал.–Тошкент, 2018.–№3.–Б. 89-95.
2. Абдуллаева Н.Ш. Ҳамкорлик педагогикаси асосида мактабгача таълим муассасаларига вариатив таълим хизматларини жорий этишнинг ўзига хос жихатлари// Халқ таълими илмий-методик журнал.–Тошкент, 2018.–№6. - Б. 80-85.
3. Абдуллаева Н.Ш. Вариативный подход как фактор повышения качества дошкольного образования// “Бола ва замон” илмий-оммабоп журнал.- Тошкент, 2018.-№3. Б. 24-27.
4. Мирзаева Д. Ш., Кенжаева З.Б. "Значение использования интерактивных методов в развитии дошкольного образования." Academy 5 (2020).
5. Эрматова Г. Мактабгача таълим менежменти. Ўқув кўлланма. Навоий, 2022
6. Миразимова, М., Муйтанова, М. Innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. (2022)1. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5134>
7. Рустамова, М. Методы применения интерактивных методов к дошкольникам.: методы применения интерактивных методов к дошкольникам. “Мактабгача таълим” журналы, (2023)1. <https://presedu.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/8267>.